

**CENTAUREA IBERICA L O‘SIMLIGINING MORFOLOGIK
XUSUSIYATLARI VA TARQALISHI**

Ilxomjon Xayriyev Abdurahmonovich

Namangan davlat texnika universiteti qoshidagi

1-sonli akademik litseyi o‘qituvchisi

E-mail: ilxomjonxayriyev@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada dorivor o‘simliklarning inson hayotidagi o‘rni, ularning tarixiy va zamonaviy tibbiyotdagi ahamiyati yoritilgan. Xususan, O‘zbekiston florasida keng tarqalgan dorivor o‘simliklar, ularning biologik xususiyatlari va ulardan oqilona foydalanish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot obyekti sifatida Asteraceae oilasiga mansub *Centaurea iberica* o‘simligi tanlanib, uning morfologik tuzilishi, ekologik moslashuvchanligi, tarqalish areali hamda xalq tabobatidagi qo‘llanilishi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mazkur o‘simlikning biologik faol moddalarga boyligi va istiqbolli dorivor manba sifatidagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *centaurea iberica* L, ko‘ztikan, flora, ksenofit, flavonoid, saponin.

Kirish

Insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridan boshlab o‘simliklar dunyosi uning hayoti, oziqlanishi va salomatligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutib kelgan. Qadim zamonlardan boshlab turli xalqlar o‘simliklardan nafaqat oziq-ovqat manbai, balki dorivor vosita sifatida ham keng foydalanganlar. Bu borada Sharq va G‘arb tibbiyotining bebaho merosi hisoblangan Abu Ali Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu fundamental asarda turli xalqlarning ko‘p asrlik tibbiy tajribasi umumlashtirilib, ko‘plab dorivor o‘simliklarning xususiyatlari bayon etilgan.

Hozirgi kunda ham dorivor o‘simliklar tibbiyot va farmatsevtika sohasida muhim resurs sifatida e‘tirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi florasida boyligi bilan ajralib turadi va unda minglab yuksak o‘simlik turlari mavjud bo‘lib, ularning muayyan qismi xalq va ilmiy tabobatda qo‘llaniladi. Shu bilan birga, dorivor o‘simliklardan oqilona foydalanish, ularning tabiiy zahiralarni muhofaza qilish va ko‘paytirish masalalari dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda Farg‘ona vodiysida keng tarqalgan Asteraceae oilasiga mansub *Centaurea iberica* o‘simligi o‘rganilib, uning biologik xususiyatlari, ekologik moslashuvi hamda dorivorlik potentsiali tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Yerda odam paydo bo'lishidanoq uni oziqlantirgan va davolagan o'simliklar dunyosi bilan uzviy bog'langan. O'sha uzoq davrlardan beri dunyoning ko'pgina halqlarida u yoki bu o'simlik o'ta qadrli hisoblanadi. Qadim zamonlardan dunyodagi barcha xalqlar o'simliklardan dorivor maqsadlardan foydalanib kelgan. O'rta asrlarning buyuk asarlaridan biri mashxur tabib Abu Ali Ibn Sinoning (Yeupada uning avusina deb atashadi) "Tib qonunlari" asarlari hisoblanadi. Bu asarlar fundamental ensiklopediya bo'lib unda Grek, Xind, O'rta Osiyo va boshqa xalqlar medesinasining ko'p asrli tajribasi va farmakologiya, farmasiya va farmokogterapiyaga oid ma'lumotlar to'plangan. Ibn Sino tavsif bergan ko'pgina dorivor o'simliklar ko'pgina mamlakatlarning xalq tabobatida ayrimlari esa xatto ilmiy tabobatda ham qo'llanila boshlangan. O'simliklar dunyosi tabiat boyliklaridan biri hisoblanadi. Respublikaning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish rejalarida yovvoyi holda o'sadigan o'simliklardan oqilona foydalanish va tabiiy zahiralarni saqlab qolish uchun ularni muhofaza qilish va ko'paytirish chora - tadbirlarini ishlab chiqish ko'zda tutiladi. Tibbiyot fanlari o'simliklardan juda ko'plab dori tayyorlash maqsadida foydalanadi. O'rta Osiyoda 8000 dan ortiq va O'zbekiston Respublikasi florasida esa 4560 dan ziyod yuksak tabiiy o'simliklar mavjud bo'lib, shundan O'zbekiston Respublikasi hududida 1100 tur yuksak o'simlikdan xalq tabobatida dori - darmon tayyorlash yoki ajratib olish maqsadida ishlatiladi, 212 turi ilmiy tabobatda qo'llanilib, shundan 48 turi tabiatdan yig'ib olinadi. Tabiatdan yig'ib olinayotgan har bir dorivor o'simlikni yig'ib olishdan oldin uning biologik va eksplatatsion zahiralarni o'rganib, so'ngra yiliga yig'iladigan miqdorini aniqlash va shunga muvofiq ularni qayta tiklash chora - tadbirlarini ko'rish talab etiladi. O'simliklardan tayyorlangan dori preparatlari organizimga hech qanday salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Ayniqsa, keyingi yillarda o'simliklardan tayyorlangan dori - darmonlar soni tobora oshib bormoqda va ularga bo'lgan talab ham yuqoridir. Chunki uzoq vaqt to'xtovsiz qo'llaniladigan kimyoviy preparatlar albatta, biror - bir organizm funksiyasini buzilishiga olib keladi. O'simliklardan tayyorlangan dori - darmonlar esa salbiy ta'sirga ega bo'lmasdan balki, organizmda biologik aktiv moddalar miqdorini oshiradi.

Biz tadqiqot olib borayotgan Farg'ona vodiysida o'suvchi Asteraceae (Murakkabguldoshlar) oilasiga mansub *Centaurea* turkumi o'zining turli-tumanligi va biologik faol moddalarga boyligi bilan ajralib turadi. Ushbu turkumning vakili bo'lgan *Centaurea iberica* (Iberiya bo'tako'zi) nafaqat begona o't, balki istiqbolli dorivor o'simlik sifatida ham tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda. *Centaurea iberica* – ikki yillik o't o'simligi bo'lib, quyidagi o'ziga xosliklarga ega: Poyasi tik o'suvchi, 20 sm dan 100 sm gacha yetadi, yuqori qismidan tarmoqlangan va biroz tukli. Pastki barglari patsimon qirqilgan, poyadagi barglari esa kichikroq va butun. Iyun—avgustgacha gullaydi va mevalaydi. Urugidan ko'payadi. To'pguli savatcha bo'lib, och pushti yoki binafsha rangli gullardan tashkil topgan. Savatcha atrofi qattiq, o'tkir tikanli o'rama

bargchalar bilan o‘ralgan. Mevasi sariq rangli, uchida qisqa popukchalari bo‘lgan urug‘cha. G‘alla ekinlari va bedazorda uchraydi, shuningdek, ariq, kanal bo‘ylari, yo‘l yoqalari, tashlandiq yerlar, bog‘ va uzumzorlarda o‘sadi. Tarkibida flavonoidlar, saponinlar va boshqa birikmalar bor. Xalq tabobatida istisqo kasalligini davolashda ishlatiladi.

Centaurea iberica qurg‘oqchilikka chidamli, kuchli o‘q ildizi yordamida tuproqning chuqur qatlamlaridan suv olgani sababli, issiq yoz oylarida ham yashilligini saqlab qoladi. Bir tup o‘simlik bir necha mingtagacha urug‘ tugadi. Urug‘lari tikanli o‘rama bargchalari tufayli odamlarning kiyimiga, chorva mollarining juniga va avtomobil g‘ildiraklariga yopishib, uzoq masofalarga tarqaladi. Poyasi va savatchasidagi o‘tkir tikanlar tufayli chorva mollari uni deyarli yemaydi. Bu esa boshqa o‘simliklar yeb bitirilgan yaylovlarda *Centaurea iberica* ning hukmron bo‘lib qolishiga sharoit yaratadi.



Janubi-sharqiy Yevropa, Kavkaz, O‘rta Osiyo, Eron va Afg‘onistonda, respublikamizning deyarli barcha viloyatlarida, xususan, adir va tog‘ yonbag‘irlarida, yo‘l yoqalarida, ekin maydonlari atrofida va daryo bo‘ylarida uchraydi. Toshkent, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari hamda Farg‘ona vodiysida keng tarqalgan. *Centaurea iberica* qurg‘oqchilikka chidamli (ksenofit) o‘simlik bo‘lib, dengiz sathidan 2000 metrgacha bo‘lgan balandliklarda ham yaxshi rivojlanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, dorivor o‘simliklar inson salomatligini saqlash va tiklashda muhim tabiiy manba hisoblanadi. Ularning tarkibidagi biologik faol moddalar organizmga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, kimyoviy preparatlarga nisbatan xavfsizroq vosita sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston florasida uchraydigan dorivor o‘simliklar, xususan, *Centaurea iberica* kabi turlar ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, *Centaurea iberica* o'zining ekologik chidamliligi, keng tarqalganligi va boy kimyoviy tarkibi bilan istiqbolli dorivor o'simlik sifatida e'tiborga loyiqdir. Shu bois ushbu o'simlikni chuqurroq o'rganish, uning zahiralari baholash va muhofaza qilish, shuningdek, farmatsevtika sanoatida qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Nukus-farm", "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo farm", "Boysun-farm" va "Parkent-farm" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida: PF-5032-son Farmon, 2017-yil 3-may. – Toshkent, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Respublika farmatsevtika sanoatini jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida": PQ-2911-son Qaror, 2017-yil 20-aprel. – Toshkent, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida": Qaror. – Toshkent, 2020.
4. Ibragimov A.Y. O'zbekiston florasining boyligi va xilma-xilligi. Dorivor o'simliklar resurshunosligi: tushuncha va vazifalari. – Toshkent, 2014.
5. Gitun T.V., Kiselenko T.E. Kratkaya ensiklopediya lekarstvennyx rasteniy. – Rostov-na-Donu: Feniks, 2005. – B. 205–207.
6. Davidenkov V.V. Mexanizmy deystviya i istoriya primeneniya v gomeopatii lekarstvennyx rasteniy, obladayushchix protivovospalitelnyimi i ranozazhivlyayushchimi svoystvami (na primere preparata Traumeel ad us. vet.) // Veterinarnaya patologiya. – 2003. – №4. – B. 14–24.
7. Belenovskaya L.M., Budantsev A.L. Produkty vtorichnogo metabolizma *Hypericum perforatum* L. i ix biologicheskaya aktivnost // Rastitelnye resursy. – 2004. – T. 40. – Vyp. 3. – B. 131–153.
8. Sheina N.Yu. Osobennosti vliyaniya fitonsidov nekotoryx dikorastushchix rasteniy na organizm cheloveka (Orenburg viloyati misolida) // Vestnik OGU. – 2008. – №6. – B. 157–160.
9. Iskandarova Sh.F., Djabbarov N.A., Raximova Sh., Abduhalilova N.S. Teshik dalachoy ekstrakti asosida biologik faol qo'shimcha texnologiyasini ishlab chiqish // Farmatsevtika jurnali. – Toshkent, 2017. – №1. – B. 94.
10. Komilov X.M. Farmakognoziya fani bo'yicha ma'ruzalar matni: uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2012. – B. 183–184.
11. Soelberg J., Jørgensen L., Jäger A.K. Hyperforin accumulates in the translucent glands of *Hypericum perforatum* // Annals of Botany. – 2007. – Vol. 99.